

MATEMATIKA FANIDAN MAVZULARNI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHNING TA'LIM BERISH SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Babadjanov Rashid Yuldashevich

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar MT va
MT bo'limiga qarashli 25-son umumta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fan-texnika taraqqiyoti sharoitida matematika fanini kasbiy yo'naltirib o'qitishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Matematikani o'qitishda kasbiy yo'naltirish o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning mehnatsevarlik, kasbga sadoqat, axloqiy poklik va Vatanga muhabbat kabi muhim shaxsiy fazilatlarini aniq shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Maqolada matematika ta'limining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirish, uni ishlab chiqarish, texnika va texnologiya bilan bog'lash orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, matematikani kasbiy yo'naltirib o'qitishning didaktik tamoyillari, ko'rgazmalilik va politexnik yondashuv asosida tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: matematika ta'limi, kasbiy yo'naltirish, fan-texnika taraqqiyoti, politexnik tamoyil, ko'rgazmalilik, mehnat tarbiyasi, ishlab chiqarish bilan bog'liq ta'lim, ilmiy dunyoqarash, kasbiy tayyorgarlik.

Annotation: This article examines the pedagogical significance of professionally oriented teaching of mathematics in the context of scientific and technological development. It substantiates that professional orientation in mathematics education contributes to deepening students' knowledge and forming such important personal qualities as diligence, professional commitment, moral integrity, and patriotism. The article analyzes the integration of theoretical and practical aspects of mathematics with technology, production, and engineering, which helps develop students' scientific worldview and professional readiness. In addition, the necessity of organizing mathematics teaching on the basis of didactic principles, visualization, and a polytechnic approach is emphasized.

Keywords: mathematics education, professional orientation, scientific and technological development, polytechnic principle, visualization, labor education, education connected with production, scientific worldview, professional training.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение профессионально ориентированного обучения математике в условиях научно-технического прогресса. Обосновано, что профессиональная направленность в обучении математике способствует углублению знаний учащихся и формированию таких важных личностных качеств, как трудолюбие,

профессиональная направленность, нравственная чистота и патриотизм. Проанализированы вопросы интеграции теоретических и практических аспектов математики с техникой, производством и технологиями, что способствует формированию научного мировоззрения и повышению профессиональной подготовленности учащихся. Также подчеркнута необходимость организации обучения математике на основе дидактических принципов, наглядности и политехнического подхода.

Ключевые слова: обучение математике, профессиональная ориентация, научно-технический прогресс, политехнический принцип, наглядность, трудовое воспитание, обучение, связанное с производством, научное мировоззрение, профессиональная подготовка.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida, matematika fani izchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo`ladi. Shu munosabat bilan o`quv tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug`ildi, yoshlarga umumkasbiy fanlarni o`qitishda o`quvchilarning fan asoslarini chuqur egallashini ta`minlash, ularga kasbiga e`tiqod, mehnatsevarlik, axloqiy soflik kabi xislatlarni shakllantirish, Vatanimizga muhabbat va uning kelajagi uchun o`zining xissasini qo`shishga tayyor turadiga va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo`lib. Shu bilan birga mavzuning insoniyat xayotidagi rolini o`quvchilarga yetkazishdan iborat. Matematikani predmet sifatida o`qitishda kasbiy yo`naltirish o`qitishning maqsadlaridan biri sifatida ham, bilimlar sifatini oshirishning muhim faktori sifatida ham xizmat qiladi. Matematikani kasbiy yo`naltirib o`qitish faqatgina kasbiy chaqqonlikni oshiribgina qolmay, shu bilan birga o`quvchilarning ma`naviy kuchlarini va qobiliyatlarini ham rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijobiy munosabatda bo`lish kabi fazilatlarini shakllantirishga ham imkon beradi.

Ma`lumki, fan va texnika taraqqiyoti ta`lim va tarbiyaning mazmuni va metodlariga bevosita ta`sir etadigan quyidagi bir qator belgilar bilan xarakterlanadi:

- fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o`zgarishlarning birga qo`shilib ketishi natijasida fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi;
- ishlab chiqarish kuchlari hamma elementlarini sifat jihatdan qaytadan qurish;
- mehnat xarakteri va mazmunining o`zgarishi, unda ijodiy elementlar rolining o`sishi;
- ishchilar umumiy va maxsus ta`limi, hamda madaniyatining o`sish darajasi;
- ekologik muammolarning paydo bo`lishi va shunga bog`liq bo`lgan boshqa masalalar.

Kasbiy yo`naltirib o`qitish ham albatta didaktik tamoyillarga tayanadi. Matematikani kasbiy yo`naltirib o`qitish asosan “ko`rgazmali” bo`ladi, chunki uning manbai texnika ob`ektlari hisoblanadi. Shu tufayli, matematika o`qitishda politexnik

tamoyilni ketma-ket amalga oshirish koʻrgazmalilik tamoyili vositalarini boyitish bilan birga matematikadan oʻquv jihozlariga aniq talablar qoʻyadi. Kasbiy yoʻnaltirib oʻqitish insonning mehnat va ishlab chiqarish – texnik faoliyatida shakllanadi va aniq koʻrinishda namoyon boʻladi. Shu sababli, oʻqitishni ishlab chiqarish va oʻquvchilarning mehnati bilan bogʻlanishi ular tomonidan bilimlarni oʻzlashtirishning zaruriy sharti boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilarni kasbga tayyorlash fan asoslarini, mehnat taʼlimini oʻrganish jarayonida, texnika, texnologiya va ijtimoiy – foydali, ishlab chiqarish mehnati boʻyicha sinfdan tashqari mashgʻulotlarda amalga oshiriladi. Matematikani oʻqitishning kasbiy yoʻnaltirilishi muammosi bugungi kunda ayniqsa, dolzarb hisoblanadi, chunki hozirgi paytda rivojlanish kirib bormagan sohaning oʻzi yoʻq. Bunda uning mazmun va jarayonual tomoni farqlanadi. Mazmun tomoni esa oʻqitishning metodlariga va shakllariga qoʻyilgan talablar hisoblanadi.

Matematikani oʻrganishda qarab chiqilayotgan qonuniyatlar xalq xoʻjaligining muhim sohalaridagi texnik qoʻllanishlarni ham kiritish kerakligini talab etadi. Bu esa matematika kursining nazariy va amaliy qismlarini aniqlab olishga imkon beradi.

Oʻrta umumtaʼlim maktablarini tugatgan oʻquvchilarning bir qismi ishlab chiqarish sohasiga boradi. Shu munosabat bilan ular mehnat tarbiyasini olgan boʻlishlari zarur. Mehnat tarbiyasi masalasini hal etishda matematika oʻqituvchisi ham maʼlum darajada ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi yoshlarni hamkasblarga, mehnat jamoalarga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun zarur va foydali ishlarni bajarishga tayyorlash, mehnat natijasiga javobgarlik hissini, jamoa qiziqishini oʻzining qiziqishlaridan ustun qoʻyishga, mehnatga ijodiy munosabatda boʻlish hislariga erishishga yoshligidan tayyorlab borishdan iborat. Agar, oʻqitish ishlab chiqarish mehnati bilan qoʻshib olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djorayev M. Fizika oʻqitish metodikasi (Umumiy masalalar). – Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2015. – 280 b.
2. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси.- Тошкент-2011.-303 б.
3. Yunusova D. Matematikani oʻqitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 200 b.
4. Yunusova D.I. Taʼlim texnologiyalari asosida matematik taʼlimni tashkil etish. T., “Universitet”, 2005.- 131 b.